

*Chirchiq shahar XTMFMT va TEB
tasarrufidagi 6-sonli umumiy o'rta ta'lim
maktabi mehnat ta'limi fani o'qituvchisi
Adilova Dilsora Hamidullayevnaning
“NAVOIYNI ANGLASH – O'ZLIKNI ANGLASH”
mavzusida yozgan bir soatlik ma'naviyat
soati dars ishlanmasi*





**Birin-ketin o'tib borar asrlarning karvonlari,
Oh, nechog'lik xatarlidir uning oshar dovonlari,
Inson zoti murodiga azal – abad yetar edi.
Ushalsa gar umidvor zot Navoiyning armonlari,
Fursat keldi do'stu g'anim kimligini bilay bu kun.
Jami basher farzandiga saodatlar tilay bu kun,
Ko'kka boqib sahar chog'I iltijolar qilay bu kun,
Nurga to'lsin aziz bobom, Navoiyning makonlari.**

Darsning mavzusi: Navoiyni anglash – o'zlikni anglash.

Darsning shiori: “Bir ko'ngil imorati – ming Makka ziyorati”.

Maqsad:

Ta'limiy maqsad: O'quvchilar bilan ulug' inson, shoirlarning sultoni Mir Alisher Navoiy hayoti va ijod qirralarini ochish. O'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirish, ravon va mustaqil fikrlay olishga chaqirish.

Hayotni sevib yashashga undash. O'quvchilarda Navoiy ijodiga doir bilim, malaka va konikma hosil qilish. Ona tilimiz muqaddas ekanligini bilish.

Tarbiyaviy maqsad: Navoiy asarlaridagi “Komil inson” g'oyasi tushunchasini o'quvchilar ongigayetkazish.

Rivojlantiruvchi maqsad: Dars orqali o'quvchilarni do'stlikni qadrlash, hayotda buyuk ajdodlarimiz singari o'z o'rnini topishga chorlash.

Darsning tipi: Guruhlarda ishlash

Darsning usuli: Badiiy o'qish ,aqliy hujum

Darsning jihozi: Navoiy siymosi aks etgan surat. Navoiy asarlari, DVD, ko'rgazmalar. O'qituvchi tomonidan tayyorlangan lahzali savollar.

Darsning borishi:

Tashkiliy qism:

Xonada psixologik muhit yaratish, xona bayramona bezatilgan, DVD orqali “Munojot”kuyi yangramoqda.

O'qituvchi: - Ezgulik g'oyasi ko'rsatar kuchin,

Komil shaxs bo'lmoqqa shaylandi yurak.

Tarixda yaxshilik qoldirmoq uchun,

Ulug' Navoiyni anglamoq kerak.

O'quvchi:- Navoiy ziyoli oila farzandi bo'lib, har qanday vaziyatda bilim olish,mustaqil mutoiaa qilishni to'xtatmadi.Uning kamolga yetishishida Temuriyzodalarning xizmati beqiyos bo'ldi.

O'quvchi: Navoiy butun faoliyati va ijodini insonning baxt – saodati uchun kurashga, xalqning osoyishtaligiga, obodonchilik ishlariga, ilm-fan, san'at va adabiyot taraqqiyotiga bag'ishladi.

O'quvchi: - U buyuk olim, donishmand, davlat arbobi, o'zbek adabiy tiliga asos slogan va mumtoz adabiyotni yangi taraqqiyot pog'onasiga ko'targan ulug' so'z sanatkori, istedodli olim bo'lib yetishdi. Qimmatli asarlar yaratdi, davrning madaniy hayotiga rahbar,ilm-fan, san'at va adabiyot ahllariga homiy,ko'plab shogirdlar yetishtirgan ustoz bo'ldi. Hech ikkilanmay aytish mumkinki, Navoiy o'z davrining eng buyuk “Ustoz murabbiy” hamdir.

O'quvchi: Mashhur rassom Behzod, xattot Sulton Ali kabi kishilar ham bevosita Navoiyning homiyligida kamilga yetgan edilar. Shoirning rahnamoligida juda ko'plab inshootlar qurildi, bog'lar barpo etildi, hovuz va ariqlar qazildi.

O'quvchi: Naviy qurdirgan xonaqohlardan biri Xalosiya xonaqohi bo'lib, Xondamirning ma'lumoticha, u yerda musofir va qashshoq kishilarga oziq – ovqat tarqatilar va har yili 2000 ga yaqin po'stin, bosmachakmon, ko'ylak, taqiya va kovushlar ulashilar ekan.

O'quvchi: Bundan tashqari u “Jamoatxona” xonaqoxi, Sari Xiyobon, Havzak, Childuxtaron, Tarnob kabi o'nlab rabot, ko'pgina maqbaralar qurdirdi.

O'quvchi: Suvsiz yerlarga suv chiqarish ishiga katta ahamiyat bergan Navoiy Tus viloyatining Chashmai Gulist bulog'idan Mashhadga suv keltirish uchun 70 km.ga yaqin ariq qazdiradi.Bu ishning borishida o'zi ishtirok etadi.

O'qituvchi: - Aziz o'quvchilar! Siz to'plagan ma'lumotlar orqali ko'pgina bilimga ega bo'ldingiz. Endi shoirning g'azal, sherlaridan tinglasak.

O'quvchi: - Jondin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz,

- Sondin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz.

Har neniki sevmak ondin ortiq bo'lmas,

Ondin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz.

O'quvchi: -Yo rab, ul shahdu shakar yo labdurur,

Yo magar shahdu shakar yolabdurur,

Jonima payvasta novak otqali,

Hamza o'qin qoshig'a yolabdurur

O'quvchi: - Ko'rgali husningni zoru muftalo bo'ldim sango,

Ne balolig' kun edikim oshno bo'ldim sango.

O'quvchi:- Gulu –gulzir sening bog'i jamolingg'a fido,

Savri shamshod dog'l toza niholingga fido.

O'quvchi:- Dostlar, gulshan aro sarvi ravonimni tilang,

Tolibon keltursangiz, muzdig'a jonimni tilang.

O'qituvchi:- Rahmat, Aziz o'quvchilar! Navbatni sahna ko'rinishiga berib, do'stlaringiz tomonidan tayyorlangan Mirzo Toshmuhammad o'g'li Oybekning "Navoiy " romanidan bir parcha tomosha qilamiz.

O'quvchi:-Naviy, Mirak Naqqosh, Kamoliddin Behzod va xizmatkor gilam to'shalgan xona, xontaxta ustida sham.Navoiy qo'lida qog'oz va qalam, ilhom og'ushida.

Bir g'azal, bir tuyuq yozdi, tuyuqdan xursand bo'ldi. Bunda ona tili boyligining va imkoniyatining bir jilvasini ko'rdi. Tongda Mirak Naqqosh keldi. Navoiy "Binafsha bog'"dagi yozgi koshkda naqsh ishlatish to'g'risida gaplashmoq uchun chaqirtirgan edi. Mirak Naqqosh suhbat orasida o'zining favqulodda iste'dodga ega bo'lgan bir shogirdni eslatib o'tdi. Uning naqqoshlikdan ko'ra rasmga ko'ngli moyilligi hamda ajoyib rasmlar ishlay boshlagani ustodning samimiy g'ururi bilan aytgach, Navoiy juda qiziqdi. Boshqa gaplarni yig'shtirib, uni surishtira boshladi.

Mirak Naqqosh:- Bizning Kamoliddin Behzod hirotlik yetim bola edi, rahmim keldi. Mening san'atimdan o'zga shogirdlarim qatorida tirikchilik yo'li ochilar, degan andisha bilan uni shogirdlikka oldim. Zehni behad baland qo'li oltin ekan.

Navoiy:- Yuring, maxdum, bizni olib boring, shogirdingiz bilan bizni tanishtiring.

Mirak Naqqosh:- Siz ovora bo'lmang. Behzodni men o'zim keltirurnan. Sizni ziyorat qilmoq ulug' baxtdir.

Mirak Naqqosh Navoiyning yoniga Behzodni olib keldi. Navoiy Behzod bilan ulug' og'adek samimiy mehribonlik bilan ko'rishdi. Mirak Naqqosh Behzodning ayrim rasmlarini ko'rsatdi. Navoiy rasmlarga qarab go'zal bir olamga kirgandek uzoq vaqt tikildi. Ikkinchi rasmni ko'rdi. Rasmda ohular go'yo qog'ozda sakrab yurganday tuyuldi. Behzod Navoiyga ichki bir xayol bilan boqib qo'yardi. Mirak naqqosh aksari uning o'z ko'zi oldida yaratilgan bu rasmlarni go'yo ilk daf'a ko'rgandek zavqlanib tomosha qilar edi. Nihoyat Navoiy shoir ko'zlarida yongan quvonch bilan yosh rassomni tabrikladi.

Kamoliddin Behzodning yuzi allaqanday yorug'lanib ketdi, titroq lablari bilan dedi:

- Ulug' iltifotingiz uchun ne til bilan tashakkur etmoqni bilmaymen. Bu tasvirlar shogirdingizning mashqlaridur, qalamim ustodlarning ta'limiga g'oyat muhtojdir.

Navoiy: - Ta'lim olmoqdan hech vaqt yuz o'girmangiz.

Ular xayrlasha turib Navoiy Mirak Naqqoshni dahlizga chaqirib shivirladi:

-Ertaga ertalab mening yonimga keeling.

Naqqosh: - Xo'sh.

Navoiy:- Bu favqulotda iste'dod nimaga muhtoj,uni tarbiyalamoq uchun nimalar qilmoqligingiz kerak...

O'qituvchi:- hurmatli o'quvchilar, mana, ko'rdingiz, Navoiy Behzodni o'z qaramog'ga olib, uning kamol topishiga homiylik qiladi. Endi musiqiy daqiqalarni tinglab,diqqatimizni jamlasak.

Navoiy g'azali bilan" Soqiynomai bayot "qo'shig' ijro etiladi. Qo'shiqdan so'ng o'qituvchi tomonidan tayyorlangan lahzali savollarga javob toppish o'yini o'tkaziladi. Aqliy hujum texnologiyasi.

1. Prezidentimiz Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida buyuk shoir Navoiyga qanday ta'rif berilgan?
2. Navoiy she'riyatining bosh qahramoni?
3. O'z zamonining "Malikul - kalomi"deb baholangan shoir Lutfiyni hayratga slogan bayt.
4. Navoiyning forsiy tilda yozgan she'rlariga qo'ygan taxallusi?
5. Navoiyshunos olim kim?
6. Navoiyning birinchi kitobi?
7. Navoiyning asrab olgan o'g'li, keyinchalik do'sti bo'lib qolgan shoir?
8. Navoiyning ota - onaga bag'ishlagan mo'tabar she'ri?
9. Navoiyga atab qo'yilgan joy nomlari?
- 10.Navoiyning xatnoma asari nomini ayting?
- 11.Qaysi chet davlatlarda Navoiy haykali bor?

Oqituvchi: - Rahmat, o'quvchilar! Endi Navoiyning "Mahbubul - qulub"- nasihatnoma asaridan o'rin olgan maqollardan yod aytamiz.

1. Tilga ixtiyorsiz – elga etiborsiz.
2. Vafosizda hayo yo'q – hayosizda vafo yo'q.
3. Chin so'z mo'tabar, yaxshi so'z muxtasar.
4. Befoyda so'zni ko'p aytma, foydaliq so'zni ko'p eshturdin qaytma.
5. Saxovat insoniyat bog'ining borar shajaridur, balki ul shajarning muhit samaridur.
6. Saxovatingiz kishi – yog'insiz abri bahor.
7. Chin so'zni yolg'onga chulg'ama, chin ayta olur tilni yolg'onga bulg'ama.
8. Sihat tilasang ko'p yema, izzat tilasang ko'p dema.
9. Er kishiga zebu ziynat hikmat va donishmandur.
10. Ko'p o'qigan xo'p biladi.

Rahmat, aziz o'quvchilarim. Siz buyuk olim, madaniyat homusi, she'riyatimiz gultoji Alisher Navoiyga taalluqli ma'lumotlarni berdingiz.

Uyga vazifa sifatida "Navoiy har yurakda boqiy "mavzusida uy inshosini yozib kelasiz.

Darsda faol ishtirok etga
guruh va o'quvchilar
baholanib
rag'batlantiriladi.

